

Xotira: 2021-yil ilm-fan yo'qotishlari

2021-yil ham o'z nihoyasiga yetdi. Orqaga nazar solib, yil davomida erishgan va erishmaganlarimiz sarhisobini qilamiz. Shu o'rinda yo'qotishlarni eslab, chuqur o'ygga tolasan kishi. Bu qanchalik og'riqli bo'lsa-da, hayot qonuni shu.

2021-yil o'zbek ilm-fani ham yo'qotishlarsiz bo'lmadi.



Informatika, hisoblash texnikasi va avtomatlashgan boshqaruv tizimlari sohasida yirik olim, O'zR FA akademigi Bekmurotov To'liqin Fayziyevich 5-yanvar kuni 85 yoshida vafot etdi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti sohasida yirik olim, O'zR FA akademigi Kim Vladimir Vasilevich 8-aprel kuni 92 yoshida vafot etdi.

Fizikaviy elektronika sohasida jahonda tanilgan yirik olim, O'zR FA akademigi Rasulev O'tkir Xasanovich 4-may kuni 82 yoshida vafot etdi.

O'zR FA "Fizika-Quyosh" IChB qoshidagi Materialshunoslik instituti laboratoriya mudiri, geliotexnika

sohasida yetakchi amaliyotchi olim Abdujabbor Abduraxmonov 21-iyunda 75 yoshida vafot etdi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi

raisi o'rinbosari, iqtisod fanlari nomzodi Ismoilova Mastura Axmatovna 5-iyul kuni vafot etdi.

Mikrobiologiya sohasida yetakchi olim Mahmud Zakirovich Zakirov 14-iyul 93 yoshida vafot etdi.

O'zR FA San'atshunoslik institutining yetuk olimasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Abulqosimova Xanjara Nosirovna 15-iyul 87 yoshida vafot etdi.

Qayta tiklanadigan energiya, quyosh energiyasini issiqlikka aylantirish va undan foydalanish sohasidagi yirik olim, professor Rabbanaqul Avezov 4-iyulda 80 yoshida

Noorganik kimyo sohasidagi yetuk olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, "Kompleks birikmalar kimyosi" ilmiy maktabi asoschisi, O'zR FA akademigi Parpiyev Nusrat Agzamovich 24-iyulda vafot etdi.

O'zR FA Tarix instituti ilmiy xodimi, tarixshunos olimasi, professor Dono Hamidovna Ziyoyeva 2-avgust vafot etdi.

Yarim o'tkazgichlar fizikasi sohasidagi yirik olim, O'zR FA akademigi Bahodirxanov Muhammad Kabir Sayidxon o'g'li 19-avgust kuni 80 yoshida vafot etdi.



O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor bo'limi mudiri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor Mamatquli Jo'rayev 24-avgust kuni 65 yoshida olamdan o'tdi.

Materialshunoslik sohasidagi yirik olim, texnika fanlari doktori, professor Abdujabbar Abduraxmanov 7-sentyabr kuni vafot etdi.

Seysmik rayonlashtirish sohasidagi taniqli olim, O'zR FA Seysmologiya instituti laboratoriya mudiri, fizika-matematika fanlari doktori, professor Artikov Turdali Usmonaliyevich 21-sentyabrda vafot etdi.

O'zR FA Materialshunoslik instituti direktori o'rinbosari, texnika fanlari doktori Mirzasulton Mamatkosimov vafot etdi.

Lazer fizikasi va texnologiyalari, nohiziqli optika va spektroskopiya sohalarida dunyoga tanilgan olim, O'zR

FA akademigi Timurbek Usmonov 22-dekabr kuni 79 yoshida vafot etdi.

Eksperimental yadro fizikasi sohasida tanilgan olim, O'zR FA akademigi Tolib Musaevich Mo'minov 22-dekabr kuni 78 yoshida vafot etdi.

Har bir mamlakat tarixini yorqin insonlar belgilaydi. Ular hayoti, zehni, bilimi, ma'naviy xususiyatlari, izlaridan ergashtirish qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular shunday insonlar edi. O'tganlarning oxirlari obod bo'lsin!